XALQ DEPUTATLARI OLOT TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-87-163-2-31-K/23 Olot tuman hokimligi

Olot tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq

Xalq deputatlari tuman Kengashi
QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Olot tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 80 mlrd. 317,6 mln.so‘m, xarajatlari 169 mlrd. 58,0 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 88 mlrd. 740,4 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Olot tumani rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tumani mahalliy budjetlarining asosiy xarajatlar ko‘rsatkichlari 3-ilovaga, umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalari me'yorlari 4-ilovaga, mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga, tuman budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Olot tumani mahalliy budjetida 2024-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi hajmi 1 mlrd. 515,6 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-409-sonli qaroriga asosan:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida

moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda Xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yangiyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Davronov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman mahalliy budjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq

nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

9. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov), Kadastr agentligi Olot tuman filiali (F.Ochilov) 2024-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) hamda mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

10. Majburiy ijro byurosi Olot tuman bo‘limi (I.Ne’matov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) hamda kadastr agentligi Olot tuman filiali (F.Ochilov) hamda tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Z.Qaxxorov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashev) hamda Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (M.Hasanova) bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

13. Tuman irrigatsiya bo‘limi (Sh.Sharipov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Tangriyev), tuman IIB YHX bo‘limi (A.Saidov), Tuman Davlat xizmatlari markazi (L.Ne’matov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashning Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yangiyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Davronov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi

to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin;

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Tuman hokimligi apparati matbuot xizmati (Sh.Sharobov) hamda “Olot hayoti” gazetasi tahririyati (H.Bozorov)larga:

Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari va boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin;

mazkur qaror “Olot hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Yangiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **N.Nematova**

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
1-ilova

Olot tumanining 2024-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2025-2026-yilga mo‘ljallari

(foiz hisobida)

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2025 yil	2026 yil
1	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	105.6	111.3	107.6
2	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	102.5	104.5	105.2
3	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	105.1	106.8	107.2

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
2-ilova

Olot tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	4856000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	21922000,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,0
5	Aksiz solig‘i, jami	3363000,0
	shu jumladan:	-
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*3363000,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	769000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6626000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2728500,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14327000,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5771000,0
12	Davlat boji	2164000,0
13	Jarimalar	0,0
14	Ijara to‘lovi	60000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0
16	Yig‘imlar	0,0
17	Xususiylashtirish	0,0
18	Boshqalar	0,0
JAMI:		**62586500,0**
19	O‘tkazib beriladigan daromad	17731077,0
20	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	88740395,0
HAMMASI:		**169057972,0**

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
3-ilova

Olot tumani mahalliy budjetlarining 2024-yilgi asosiy xarajatlar ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**169057972,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	21811140,0
2	Sog‘liqni saqlash	73790920,0
3	Madaniyat	3928779,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	12035070,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4407000,0
6	Qishloq xo‘jaligi	3297240,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1871613,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1921000,0
9	Tuman soliq inspeksiyasi	3656000,0
10	Hokimiyat	42339210,0

Xalq deputatlari Olot tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Olot tuman mahalliy budjetiga 2024-yildagi ajratmalari meyorlari

(foiz hisobida)

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslar-dan olinadi-gan daromad solig‘i* (**)	Yakka tartibdagi tadbirkor-lar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i*	Yuridik shaxslar-ning mol-mulkiga solinadigan soliq*	Jismoniy shaxslar-ning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i*	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i
1	Olot tumani	0	100	50	100	100	50	100	50	100

T/R	Tumanlar nomi	Yer qa’ridan foydalangan-lik uchun soliq (noruda material-lari)	Suv resurslari-dan foydalanganlik uchun soliq	Davlat bojlari***	Jarimalar***	Yig‘imlar***	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i****	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Xususiylash-tirish	Boshqalar*****
1	Olot tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0

Izoh: * yirik soliq to‘lovchilardan tushgan tushumlar to‘liq viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111104 3111106 3111300 3111600 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi.

*** Jarimalar (3 430 103) davlat boji (3422 103) va yig‘imlar (3 422 203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tumanlar va shaharlarlar

mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi"

**** Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat budjetiga ajratmalar bo‘yicha 3412110 3412112 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq viloyat budjeti daromadlariga yo‘naltiriladi."

***** Hukumat qarorlari bilan belgilangan normativlarga asosan taqsimlanadi.

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
5-ilova

Olot tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

(ming.so‘mda)

Budjetlar nomi	Daromad *	Xarajat
Olot tumani	80 317 577,0	169057972,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
6-ilova

Olot tuman mahalliy budjetining 2024 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming.so‘m

Tuman nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori	Shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar
Olot tumani	88 740 395,0	17 731 077,0

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-163-2-31-K/23-son qaroriga
7-ilova

Olot tuman mahalliy budjetida 2024-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Olot tumani	1 011 000,0